


Chiziqlar yordamida chizamiz



Chiziqlar rasm yaratishda yordam beradi. Keling, chiziqlar bilan rasm chizishni birgalikda o'rganamiz. Har bir tasvir chiziqdan boshlanadi. Chiziq **to'g'ri**, **to'liqli**, **siniq** yoki **aylanma** bo'lishi mumkin.

Chiziqlar yordamida hayvonlar, buyumlar va hatto butun boshli manzaralarni chizish mumkin.




Chiziq – qalamdan qolgan iz. U uzun, qisqa, to'g'ri yoki egri, yo'g'on yoki ingichka bo'lishi mumkin.

Chiziq turlari



aylanma
chiziq
(spiral)



to'liqli chiziqlar
(ingichka va
yo'g'on)



siniq chiziq




to'g'ri chiziqlar
(turli
uzunlikda)



Rasmni ko'zdan kechiring.
Qarshingizda **chalkash chiziqlar** turibdi. Ular ichidan turli predmetlarni toping. Ularning barchasi bitta chiziq bilan birlashtirilgan.



Qo'lingizni uzmasdan, uzunq-uzunq chiziqlar ustidan qalam yurgizib chiqing. Ko'k nuqtadan boshlang.






Turli chiziqlar yordamida rasm chizing.



Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, oddiy qalam,
o'chirg'ich, rangli qalamlar.

1



2



3

